O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

5. Рыженкова А.А. Английские загадки, построенные на омонимии // Филологический аспект: международный научно–практический журнал, 2020. № 07 (63). – С. 91–96.
6. Файзулинна Н.И. Лингвокогнитивная модель народной загадки: образно–структурный аспект (на материале русского, татарского и английского языков). автореф. дис…док. филол. н. – Казань, 2019. – 42 с.
7. Ўзбек халқ топишмоқлари. https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/
8. https://kids.niehs.nih.gov/games/brainteasers/tuff-stuff-riddles

7-SINFDA “RAVSHAN” DOSTONINI O‘RGANISH USULLARI

Nurboev Shirinbek
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ,,Ravshan” dostonining yangi avlod darsliklaridan o‘rin olishining ahamiyati, uni o‘rgatish jarayonidagi nazariy ahamiyat kasb etuvchi didaktik omillar, o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida beriladigan savol-topshiriqlarning o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi o‘rni haqida qisqacha so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, o‘quv dasturi, doston, omil, Ergash shoir, baxshi, savol-topshiriq, tahlil, qadriyat, syujet.

7-sinf ўkuvchilariga mўljallangan “Adabiët” darsligida “O‘tmishdan sadolar” rukni ostida Ergash Jumanbulbul ўg‘lining “Ravshan” dostonidan matn parcha berilgan bўlib, unga 3 soat, A2+: 5 soat miqdordagi vakt birligi ajratilgan. Ta’kidlash joizki, 7-sinf “Adabiët” darsligida mazkur dostonning dasturiy talqinida belgilab berilgan qarashlar va ўrganilishi zarur bўlgan didaktik jihatlar tўlaligicha ўz ifodasini topgan. Nazariy ma’lumotlar ham “Ravshan” dostoni xaqidagi maqolada berilgan, (162-165-betlar). Bulardan tashqari, doston matni bilan bog‘liq 28 ta savol va topshiriqlar (160-162-betlar) ham berilganki, hech shubhasizki, ular orqali doston matnining tўliq tahlilini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yaratilgan yangi avlod darsliklaridan “Ravshan” dostoni ўrin olib kelaëtgan bўlsa-da, u ikki jihatdan ahamiyatlidir. *Birinchidan*, ya’ni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan maqtab ўquvchilarining dўstlik syujetiga daxldor bўlgan mardlik, vafo, sadoqat va ўz ye’tiqodiga sodiqlik, ona-vatanga mehr-muhabbat ruhiga xos insoniy fazilatlar bilan tarbiyalaydi; *ikkinchidan*, ya’ni badiiy-yestetik jihatdan, balog‘at ostonasida turgan ўspirin ёshlarni yaqin yillarda ularni kutaëtgan kўngil-sevgi voqeliklari va ular orqali sodir bўladigan ichki his-tuyg‘ular, botiniy kechinmalar mazmuni bilan tanishtiriladi. Ayni nuqtai nazarni pedagog olimlar ham qўllab-quvvatlaydi: “ўsmir ёshda ўquvchilar insonning umri

mobaynida duch keladigan barcha ulug‘ sevgilardan xabardor bўlishi kerak. Negaki, bolalikdan balog‘atga ўtish davrida eng nozik tuyg‘u va kechinmalardan xabarsiz, shunday yuksak kechinmalar yegasini tushunmaydigan va unga xayrixoh bўla olmaydigan bola umrining oxiriga qadar bunday yuksak sezgilardan bahrasiz kolib ketishi mumkin”(1).

Adabiёt ўqituvchisi “Ravshan” dostonini ўrgatish jaraёnini boshlashning dastlabki bosqichlarida nazariy xarakter kasb etuvchi quyidagi didaktik omillarga e’tibor bergani maqsadga muvofiq bўladi:

Birinchi omil: ўqituvchi darslikda berilgan biografik ma’lumotlarni ўquvchilarga mustaqil ўzlashtirishga tavsiya yetib, ўzi yangi qўshimcha ma’lumot bilan dars materiallarini boyitsagina maqsadga muvofiq bўladi. Masalan, mazkur dostonni ўrganishda baxshi-shoirning ota-bobolaridan 5 nafar, momolaridan 2 nafar va 2 akasi ham xalq dostonlari va termalarini kuylovchi, sўzga chechan xalq baxshilari bўlganligini darsda qayd etishning ўzi darsning dastlabki mashg‘ulotini qiziqarli uyushtirishga va ўquvchilar e’tiborini jalb etishga amaliy asos bўla oladi. Bu ўrinda Ergash shoirning otasi Juman baxshi iste’dodining qudrati va doston kuylash maxoratining nihoyatda ustunligi uchun 100 taga yaqin dostonlarni ёddan aytib, ijro qilganligi xaqidagi ma’lumotlarni maqtab ўquvchilari bilib olgani, ularning bu boradagi bilimlarini yanada mustaxkamlaydi. Bu ўrinda ўquvchi Ergash shoirning “Tarjimai hol” asaridagi “*Jumandir otamning oti, lakabi bulbul sifati, hammalari shoir ўtgan yetti pushtining avlodi” ёki “Beshinchi otamning otidir Ёdgor, Shu vaqtda yelida sўzga e’tibor, har yerda ўtqazib yurgan sўzini,Chechanlikda xech kim bўlmay barobar*” deya ota-bobosi shoir ўtganligi, beshinchi otasi Ёdgor deya boshlab ota-bobolarining har biriga alohida-alohida tavsiflar berganligi xaqidagi ma’lumotlarni ham ўquvchilarga yetqazsagina, kўzlagan maqsadga erishiladi.

Ikkinchi omil: ўqituvchi darslikka kiritilgan “Ravshan” dostonini zavq va shavq bilan kuylagan Ergash shoirning ham favqulodda kuchli xotiraga, katta va noyob iste’dodga yega yekanligi xaqidagi ma’lumotlar bilan ham sinf ўquvchilarini xabardar qilishi, darsni puxta va pishiq ўzlashtirishiga muayyan zamin hozirlaydi; shuningdek, maktab va madrasa ilmini arab alifbosida ўzlashtirganligi, yozma savodxonlikka yega bўlganligi xaqidagi biografik ma’lumotlarni ham ўquvchilarga bergani ma’kul. Bu ўrinda bir adabiy dalilni misol qilib keltirishsa, juda ўrinli bўladi:

Xalq baxshisi qozoq xalqining mashxur dostoni *"Qiz Jibek"* ning qўlyozmasini ўqib chiqib, muayyan taassurotlar oladi, sўngra doston matniga qaramasdan, ayrim tўldirishlar bilan ўziga xos uslubda kuylashga xarakat qilganligi tarixiy fakt. Bu xaqda baxshining ўzi quyidagilarni ta’kidlaydiki, buni dalillashga sira hojat yўq:

“Qiz Jibek” ning nusxasin,
Qiziq qib aytay qissasin,
Xar nima xam yґanmi,
Tolib bitsinda ustasin…

Shundan sўng ўqituvchi tomonidan ishqiy-sarguzasht dostonlarining ўzbek xalq dostonchiligida katta ўrin tutganligi, bu xil dostonlarda ishqiy mojarolar asosiy mavzu ekanligi, “Gўrўg‘li” turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda “Ravshan” asarining tutgan ўrni xaqidagi ma’lumotlar beriladi. Bu

turkumdagi dostonlar soni yuzdan oshiq ekanligi xaqidagi ta’kidlar ўquvchilar ongiga singdiriladi.

Uchinchi omil: 7-sinf ўquvchilarining yoshi, aqliy saviyasi, qiziqishi va ruhiy holatini hisobga olish omiliga ўqituvchi asosiy e’tiborini qaratmog‘i lozim. Masalan, bu omilning tabiiy asoslari mavjud: sinf ўquvchilariga darslikdagi matn-parchani ўqish tavsiya etilganida, dastlab ular epik qahramonlarning biror bir xarakter-xususiyatlariga unchalik e’tibor bermaydilar, lekin ўzlariga kuchli ta’sir kўrsatgan epik qahramonlarning muayyan xatti-harakatiga ye’tiborni qaratadilar. Bolalarni asosan dostondagi kichik yoshli qahramonlar obrazi qiziqtiradi, ular hamma narsani aniq va tez bajarilishini xohlaydilar, matn voqealarining rivoji nimalar bilan tugashiga qiziqadilar. Ўquvchilardagi ayni ruhiy va ma’naviy omilni hisobga olgan ўqituvchi ularni sabr bilan kitobxonlik madaniyatiga ўrgatib, bu boradagi qiziqishini shakllantirib borishlari talab yetiladi. 7-sinf ўquvchilarining adabiyot darslarida doston janriga yendi birinchi bor duch kelayotganligini hisobga olib, ўqituvchi mavzuning birinchi kirish qismlaridayoq xalq dostonlar xaqida umumiy-nazariy ma’lumot bermog‘i, shundan sўng darslikdagi matn-parcha bilan ўquvchilarni tanishtirishshmog‘i, ya’ni ўzi ifodali tarzda ўqib bermog‘i lozim. Bu ўrinda berilgan matnni ўqituvchi qipchoq lahjasining unsurlariga alohida ahamiyat bergan holda obrazli, tushunarli va ifodali ўqib berishi, matnning mazmun-mohiyati ўziga xos jozibada bўlishi va bolalar diqqati va tasavvurini doston voqealari, obrazlar tizimi, zamin va makonga etaklashi zarur. Darslikdagi matn bilan ўquvchilarni tanishtirishda bor-yўg‘i 24-25 daqiqa sarflanadi. Dostonning tўliq varianti bilan tanishish istagida bўlgan ўquvchilarga asarni qanday qilib topish, qaerdan olish va uni qaytarazda ўqish bўyicha ham qisqacha maslahatlar berilsa maqsadga muvofiq bўladi. Shundan sўng ўquvchilarga uy vazifa sifatida bir qator topshiriqlarni bajarishlari tavsiya yetilishi mumkin.Bulardan tashqari, sinf ўquvchilarini qatorlar bўyicha 4 ta kichik guruhlarga bўlgan holda ularga anik-individual tarzda quyidagi topshiriqlarni bersa maqsadga muofiq bўladi:

a) Gўrўg‘lining nevarasi Ravshanni uylantirish maqsadida ўz ўg‘li Avazxonning uyiga sovchi bўlib borganidagi aytgan gapini ifodalovchi matnni topish va uni yod olish;

b) Ravshanning Qoraxon podshoning qizi Zulxumorni istab Shirvon eliga borayotganida Hasanxon ,,Hay attang..." deb barmog‘ini tishlab, yolg‘iz farzandiga qarab bir sўz aytib turgan matnni topish va uni yodlab olish;

v) Ravshan ўzidan ўtganini otasi Hasanxonga sўzlab turgan matnni topish va uni yodlab olish;

g) Shirvon eliga otlangan Ravshanga otasi Hasanxonning oq yўl tilab, duo. berib aytgan sўzi-matnni topish va uni yodlab olish.

Ta’kidlash lozim, bunday va boshqa aniq-individual tarzdagi topshiriqlar orqali ўquvchilarning tafakkurini yanada ўstirib, ўzlarini shu tarzda mustaqil ishlashga ўrgatish natijalari nihoyatda samaralar berishi tayin. Shu boisdan ўquvchilarni matn ustida ishlashga, undagi muhim g‘oyani, sehr va jozibani topishga, shular asosida fikrini ўziga xos sodda va uslubiga mos qisqacha tarzda ifodalab berishga harakat qilmoq lozim. Bizning nazarimizda, doston matnini tahlil qilishda fanlararo integratsiya (qўshilish, birlashish) metodidan unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq

bўladi. Masalan, berilgan matnni xos jarayonlardan kelib chiqib, til, tarix, geografiya, biologiya, zoologiya kabi fanlardan olgan bilimlarini yodga olish, xotirlash va mustaxkamlashda "Blum taksomaniya" nazariyasi metodiga tayanilsa, yanada maqsadga muvofik bўladi. Xususan, adabiyot ўqitish metodikasida mashhur bўlgan bu nazariyaning kognitiv (bilish, bilaman, tushunish, qўllash, tahlillash), affektiv (his qilaman) va psixomotor (yarataman) kabi yўnalishlarning asosiy g‘oyalariga tayangan xolda darslikda berilmagan quyidagi savol-topshiriqlar ўrtaga tashlansa va muxokama qilinsa, maqsadga muvofiq bўladi:

a) Dostonda ўz ifodasini topgan Taka-Yovmit eli, Vayangan, Xunxor, Arzrum, Shirvon eli kabi joy nomlari bugungi kүnda qaysi hududlarga tўg‘ri keladi?

b) Xasanxon Arzrumdan Xon Dallini nima uchun olib qochadi? Olib-qochish urf-odatlari qaerdan kelib chiqqan?

v) Avazxon ўz uyiga qizi uchun sovchi bўlib borgan otasi Gўrўg‘liga nima sababdan rad javobini berdi? va h.k. Savol-topshiriqlar xar bir ўquvchini affektiv (his qilish) va ichki his-hayajonlarini yuzaga chiqarish, ularni muayyan ma’noda tўlqinlantirib, faolligi yanada oshib ketishi shak-shubhasizdir.

Yoki bўlmasa, ўqituvchi dars mashg‘ulotida psixomotor (yaratish) yўnalishi bўyicha ўquvchilarning amaliy kўnikmalarini ўzgartirish va rivojlantirishni maqsad qilib, shogirdlariga dostondan olgan taassurotlari asosida biror rasm chizish, birorta she’r yozish, epik qahramonlarning tashqi kўrinishini yasash yoki biror fikrnoma yozib kelish kabi individual topshiriqlarni berishi mumkin bўladiki, bularni bajarish uchun ўquvchidan doston matnini mustaqil ўqishni talab etadi. Dars mashg‘ulotida dostondagi she’riy san’at va badiiy tasvir vositalariga alohida e’tibor qaratiladi, ўquvchilar doston muhokamasida matn mazmuni, asar qaxramonlarining tabiati, xatti-harakatlari bilan bog‘liq tavsiflarni tahlil etish kўzda tutiladi. Xususan, dostondagi Gўrўg‘li, Misqol pari, Yunus pari, Hasanxon, Avazbek, Ravshan, Zulxumor, aka-uka kallar kabi yepik qahramonlar tahlilida ularning muayyan xatti-harakatlariga, qobiliyati, tutumi, amal qilgan aqidalariga, imon-e’tiqodiga, xilma-xil urf-odatlar, va an’analarga ўquvchilarning diqqat-e’tibori qaratiladi. Tahlil davomida mazkur dostonning syujeti ishqiy-sarguzasht vokealarga bag‘ishlanganligi, ijodkor xalqimiz qadimdan sof insoniy qadriyat bўlmish muhabbatni qadrlab kelganligini ta’kidlaydi. Bu ўrinda ўqituvchi ota-bobolarimizning yuksak insoniy tuyg‘ularga ega bўlganliklari uchun har biri ўzlari farzandlari uchun munosib va sadoqatli yor tanlay olganliklarini, hayotdagi munosib yorga etishish yўlida esa mardona kurashib, or-nomusini himoya qilganliklarini ўquvchilar ongiga singdirish maqsadga muvofiq. Bu yўl bilan xalqimiz dunyo xalqlariga axloqiy jihatdan yuksak namuna bўlib kelganligiga ўquvchilar e’tiborini tortish juda katta samara berishi tayin. Dostondagi epik qahramonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni amalga oshirganligini tahlil davomida alohida qayd etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев .Қ , Қосимов Б, Қодиров Б, Йўлдошбеков Ж, Адабиёт умумий ўрта таьлим мактабларининг 7-синфи учун дарслик мажмуа. Тошкент, 2017